

Baholash va yakunlash qismi (5 daqiqa):

Ayting-chi, bugun biz nimani o'rgandik? Yana qaysi fanlarda shu mavzuga oid ma'lumotlar olgansiz? Savol-javob asosida umumlashtirish amalga oshiriladi.

Biz o'z sinfdoshlarimiz bilan birgalikda ishladik, erishgan yutuqlarimiz o'qishga qiziqishimiz, do'stligimiz va bir-birimizga samimiy munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimiz va sinfdoshlarimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla! Ofarin!

13-dars (12-mavzu). Qish hodisalari

Dars maqsadlari:

- 1. Ta'limiy:** o'quvchilarda tabiat qishga qanday tayyorlanishi haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish ko'nikmalari.
- 2. Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.
- 3. Rivojlantiruvchi:** o'rganilayotgan hodisalarni tevarak-atrofdagi hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lmagan o'quvchilarni qayd qiladi.

Tavsiya! O'quvchilarni guruhga qanday bo'lish kerak?

O'quvchilarni jamoalarga ajratishda qur'a tashlash eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Siz bolalarni o'zlari xohlagancha bo'linishlariga ruxsat bersangiz, hamma a'lochilar bilan bir jamoada bo'lishga harakat qiladi va hech kim faol bo'lmaydigan bola bilan hamkorlik qilishni xohlamaydi.

Agar o'qituvchi o'z xohishi bilan o'quvchilarni jamoalarga ajratsa, norozilik kelib chiqishi mumkin. Bu, ayniqsa, shaxsiy munosabatlar juda muhim bo'lgan o'spirinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarni

kuchlari teng taqsimlangan jamoalarga bo'lish eng oqilona usullardan biri hisoblanadi.

Bunda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- ◆ Rollarni taqsimlash;
- ◆ Daraja (martaba);
- ◆ Do'stlik yoki raqiblik;
- ◆ Bilim darajasidagi farqlarga ahamiyat qaratish.

✚ Guruhda ishlash ko'pincha o'quvchilar orasida raqobat muhitini paydo qiladi. Shundan kelib chiqib, bu jarayonni ham o'yin sifatida tashkil etish mumkin.

✚ Ko'pincha o'qituvchilar guruhga bo'lishda yo'l qo'yadigan xato bu sonidir.

Guruhga bo'lish turlari:

- ◆ 2 kishilik guruh;
- ◆ 3 kishilik guruh;
- ◆ 4 kishilik guruh;
- ◆ 5 kishilik guruh.

Mavjud bilimlarni faollashtirish. O'qituvchi oldindan tayyorlangan kartochkalarda tasvirlangan kiyimlar turlarini o'quvchilarga ko'rsatadi va ular qaysi faslda kiyilishini aytishlari kerak. O'quvchilar nega mazkur kiyimni aynan shu faslda kiyish kerakligini tushuntirib berishlari so'raladi.

Shundan so'ng o'qituvchi bugungi dars mavzusini aytadi va uni tushuntirishga kirishadi.

Asosiy qism (25 daqiqa).

Tushuntirish uchun material.

Qishda ajoyib tabiat hodisalarini kuzatish mumkin.

Qor yog'ishi bulutlardagi mayda suv tomchilarining havo harorati pasayishi natijasida muzlashi hamda o'zaro birikib, qor parchalarini hosil qilishi va yerga tushishi hodisasidir.

Ko'pincha endigina yog'gan mayin,

yumshoq qor **quruq qor** deb ataladi. Qor kunduzi havo iliq bo'lganda eriydi va kechasi sovuq havoda muzlab, yupqa muz qatlamini hosil qiladi. Bu hodisa **yaxmalak** deb ataladi.

Siz yaxmalakni ko'rganmisiz?, qordan qorbola yasaganmisiz? Mazkur savol-javob




o'quvchilarda nutqni rivojlantiradi. O'tgan darslarda o'rganganlari bilan bog'liq o'zgarishlarni mantiqan bog'lay olish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Shamol aralash kuchli qor yog'ishi **bo'ron** yoki **qor bo'roni** deb ataladi. Ba'zan bo'ron shunaqa kuchli bo'ladiki, yer ham, osmon ham ko'rinmay qoladi. Ba'zida esa shamol qorni yer bag'irlab uchirib yuradi. Bu hodisa **izg'irin** deb ataladi.

Quvnoq daqiqalar:

Shundan so'ng,
o'quvchilarning
charchab qolmasligi
uchun
harakatlanuvchi
mashq yoki
barmoq/ko'zlar
gimnastikasini
bajarishingiz
mumkin. Mashqni
sodda yoki



murakkabligi bo'yicha tanlovni o'quvchilar imkoniyatlaridan kelib chiqib qilish tavsiya etiladi.

Mustahkamlash qismi:

Topshiriqni bajarishda davom ettiramiz. Darslikning 34-betidagi topshiriqni bajaramiz. Bu jonivorlardan qaysilari qishki uyquga ketadi? Mazkur topshiriq juftlikda bajariladi. Ikkita bir xil qor parchasini toping.



Amaliy ish: Qaychi va rangli qog'ozlar yordamida oddiy qor parchasini yasang. Bu topshiriqni bajarishda texnologiya fani bilan integratsiya ta'minlanadi, amaliy ko'nikmalar shakllanadi.

Baholash va yakunlash qismi (5 daqiqa):

Ayting-chi, bugun biz nimani o'rgandik? Yana qaysi fanlarda shu mavzuga oid ma'lumotlar olgansiz? Savol-javob asosida umumlashtirish amalga oshiriladi.

Biz o'z sinfdoshlarimiz bilan birgalikda ishladik, erishgan yutuqlarimiz o'qishga qiziqishimiz, do'stligimiz va bir-birimizga samimiy munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimiz va sinfdoshlarimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla! Ofarin!

14-dars (13-mavzu). Suvning holatlari

Dars maqsadlari:

- 1. Ta'limiy:** o'quvchilarda suvning holatlari haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish malakalari.
- 2. Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.
- 3. Rivojlantiruvchi:** o'rganilayotgan hodisalarni kundalik hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lmagan o'quvchilarni qayd qiladi.

Mavjud bilimlarni faollashtirish:

O'tgan darsimizda nimani o'rgandik, siz qish haqida nimalarni bilasiz?

Tavsiya! O'quvchiga vazifa taqdim etish

Birinci navbatda sinfda tinchlikni saqlab, barcha o'quvchilar sizga qarashlarini ta'minlang. Ba'zi o'qituvchilar shovqinli muhitda ishlasa, ba'zilari diqqatni jalb qilish uchun chapak chalish yoki baland ovozda gapirish kabi turli usullarni qo'llaydilar.

So'zlaringiz qisqa, aniq va ijobiy bo'lsin. Ovoziningiz qat'iy va ishonchli jaranglashi kerak. Agar sharoit o'rindan turishni talab qilsa, o'quvchilardan ko'rsatmalar tugamaguncha tik turishlarini so'rang. Tugatganingizdan so'ng, topshiriqni qisqacha tushuntiring.